

TARIX O‘QITUVCHILARINING KASBIY METODIK TAYYORGARLIGINI TAKOMILLASHTIRISH

Joldasov Ixtiyor Suyundikovich CHDPU “Tarix” kafedrasi pedagogika fanlari bo‘yicha falsafa doktori, (PhD)

IMPROVEMENT OF PROFESSIONAL METHODICAL TRAINING OF HISTORY TEACHERS

Joldasov Ikhtiyor Suyundikovich, Doctor of Philosophy in Pedagogical Sciences, Department of “History”, CHDPU, (PhD)

СОВЕРШЕНСТВОВАНИЕ ПРОФЕССИОНАЛЬНОЙ МЕТОДИЧЕСКОЙ ПОДГОТОВКИ УЧИТЕЛЕЙ ИСТОРИИ

Жолдасов Ихтияр Суюндиқовиң, доктор философии по педагогическим наукам кафедры “История” ЧГПУ (PhD)

Annotatsiya: Ushbu maqolada tarix o‘qituvchilarining metodik tayyorgarligini takomillashtirish va kasbiy rivojlantirishning ilmiy-pedagogik muammolari tadqiq qilingan. tarix o‘qituvchilarini kasbiy rivojlantirish tamoyillari, nazariy va pedagogik jihatlari ilmiy asoslangan.

Kalit so‘zlar: bo‘lajak tarix o‘qituvchilarini, kasbiy kompetensiya, didaktik bilim.

Abstract: In this article, the scientific-pedagogical problems of improving methodical preparation and professional development of history teachers are studied. principles of professional development of history teachers, theoretical and pedagogical aspects are scientifically based.

Key words: Future history teachers, professional competence, didactic knowledge.

Аннотация: В данной статье исследуются научно-педагогические проблемы совершенствования методической подготовки и профессионального развития учителей истории. Принципы профессионального развития учителей истории, теоретические и педагогические аспекты научно обоснованы.

Ключевые слова: Будущие учителя истории, профессиональная компетентность, дидактические знания.

KIRISH. Hozirgi vaqtida bo‘lajak tarix o‘qituvchilari metodik tayyorgarligini takomillashtirishda, o‘quv jarayoniga zamonaviy pedagogik va axborot-kommunikatsiya texnologiyalaridan o‘z o‘rnida foydalanish bilan bir qatorda xalqaro baholash dasturlari bilan ham chambarchas bog‘liq. O‘qituvchilarning kasbiy-metodik tayyorgarligi ularning kasbiy faoliyatga doir bilimlar, ta’lim-tarbiya jarayonini tashkil qilish, o‘z-o‘zini rivojlantirish kabi asosiy kasbiy faoliyat sohalarida aks etadi. Bu esa o‘z navbatida, o‘qituvchining o‘z fanini o‘qitishga doir bilimlarni mukammal bilishi va harakatga keltirishi, ta’lim jarayonini loyihalash,

tashkil qilish va baholash uchun zarur bo‘lgan tayanch kompetensiyalarni egallashi, shuningdek, o‘qitish va tarbiyalash jarayonini ta’lim sohasidagi innovatsion ilmiy yutuqlar, zamonaviy pedagogik va axborot-kommunikatsiya texnologiyalari asosida intensiv tashkil etish, uzluksiz va tizimli o‘z-o‘zini rivojlantirishni talab etadi.

ADABIYOTLAR TAHLILI VA METOD.

Bu o‘rinda kompetensiyaga kelib to‘xtalsak, har bir kasbiy kompetensiya talabaning kasbiy muammolarini hal qilishda talab qilinadigan nazariy bilim, amaliy ko‘nikma va tajribaning shakllanish darajasini, shuningdek, uning individual va shaxsiy



[https://orcid.org/0000-0003-](https://orcid.org/0000-0003-3020-5202)

[3020-5202](#)

e-mail:

joldasovixtiyor1@gmail.com

fazilatlarini aks ettiruvchi bir qancha tarkibiy qismlardan iborat.

Taraqqiy etgan davlatlarda bo'lajak tarix o'qituvchilarining kasbiy metodik tayyorgarligini takomillashtirish bo'yicha, jumladan, quyidagi ustuvor yo'naliшlarda ilmiy-tadqiqotlar olib borilmoqda: bo'lajak tarix fani o'qituvchilarining kasbiy metodik tayyorgarligini rivojlantirish; bo'lajak tarix fani o'qituvchilarining kasbiy faoliyatini zamonaviy talablar darajasida boshqarishni ta'minlash; bo'lajak tarix fani o'qituvchilarining kasbiy metodik tayyorgarligini tashkil etishda innovatsion yondashish; bo'lajak tarix fani o'qituvchilarining kasbiy metodik tayyorgarligini tashkil etishning samarali mexanizmlarini takomillashtirish; bo'lajak tarix fani o'qituvchilarining kasbiy-metodik tayyorgarligini takomillashtirish metodikasini ishlab chiqish[1].

MUHOKAMA. Pedagog olimlar tomonidan kasbiy-pedagogik kompetensiyalar shartli ravishda quyidagi tarkibiy qismlarga ajratilmoqda:

- Kommunikativlik kompetensiyasi. Jamiyatda o'zaro muloqotga kirishish uchun, avvalo, ona tili va birorta xorijiy tilni o'zlashtirib, ulardan muloqotda samarali foydalana olish;
- Axborot bilan ishslash kompetensiyasi. Mavjud media manbalar (internet, teleradio, audio-video yozuvlar, bosma nashrlar, elektron pochta va boshqalar)dan kerakli ma'lumotlarni izlab topa olish, saralash;

- Kompetensiyani tavsiflovchi eng muhim jihatlardan biri bu tashabbuskorlikdir. Bu faoliyatning yangi shakllariga ichki uyg'onish, har qanday harakatda yetakchi rol o'ynaydi. Tashabbus – bu inson tomonidan amalga oshiriladigan ijtimoiy faoliyatning bir turi. Tashabbus insonning ijtimoiy meyorlarga sodda roya qilishdan ko'ra, ko'proq mas'uliyat yuklashi bilan tavsiflanadi. Ta'lim taraqqiyotining hozirgi bosqichi oldingilaridan, birinchi navbatda o'qituvchining roli bilan ajralib turadi. U o'z bilimlari va yondashuvlarining butun tuzilmasini qayta ko'rib chiqish zarurligini his qiladi, muhim savollarga javob topishga intiladi: "O'quv jarayonini qanday tashkil qilish kerak?" "O'rganish qachon samarali ta'limga erisha oladi?"[2] Shubhasiz, didaktika – bu ta'lim rivojlanishining ushbu bosqichida paydo bo'ladigan muammolarni hal qilish uchun mo'ljallangan fan, chunki didaktik bilimlar o'quv jarayoniga axborot va funksional jihatlarning yaxlit tizimi sifatida qaratilgan. Ushbu

pozitsiyalardan o'qituvchi o'quv jarayonining tashkilotchisi sifatida, ijtimoiy-psixologik, uslubiy va didaktik kompetensiyaga ega bo'lishi kerak. Didaktika J.A.Komenskiy davrida paydo bo'lganidan boshlab, hozirgi kunga qadar o'quv jarayonini qanday loyihalash va amalga oshirishni belgilab berdi. Aksariyat hollarda o'quv jarayonidagi o'zgarishlar didaktikada ishlab chiqilgan, metodologiyada aniqlangan va amaliyotda sinab ko'rigan nazariy tamoyillar asosida sodir bo'lmoqda.

Tadqiqotchi olim I.I.Logvinov didaktik bilimlarni tahlil qilib, uni ilmiy emas, balki ma'naviy va amaliy deb tasnifladi. Ushbu sohalardagi didaktik bilimlar turli yo'llar bilan, xususan, o'rganish nazariyasida tajriba orqali olinadi[3]. Shunday qilib, I.I.Logvinov didaktik bilimning manbai bevosita o'qitish amaliyoti ekanligini ta'kidladi. O'qitishning bevosita amaliyoti, to'g'rirog'i, uni tavsiflash, tizimlashtirish va tahlil qilish empirik darajada bilim beradi. Yuqorida fikrlarni qo'llab-quvvatlagan holda, biz o'qituvchining kasbiy pedagogik faoliyati maxsus tayyorgarlikni talab qiladi, deb hisoblaymiz, bunda didaktik tayyorgarlik markaziy o'rinni egallaydi. Ikkinchisining integrativ xususiyati didaktik kompetensiya kasbiy kompyetensianing ajralmas qismidir. Talabaning didaktik tayyorgarligi bu talabaning didaktik kompetensiyasini rivojlantirishga, uning o'quv va uslubiy ko'nikmalarni egallashini ta'minlashga, samarali didaktik o'zaro ta'sirga tayyorligini va ta'lim tashkilotida o'quv jarayonini rivojlantirishga qaratilgan uzluksiz pedagogik jarayondir.

NATIJALAR. Talabalar tafakkuri, asosan, o'qish, amaliy mashg'ulot va mustaqil bilim olish faoliyatlarida jadal va uzluksiz ravishda rivojlanadi. Goho ma'ruza jarayoni ulardan reproduktiv tafakkurni taqozo etsa ham, lekin amaliy mashg'ulotlar, mustaqil topshiriqlar, laboratoriya topshiriqlari produktiv (ijodiy) fikr yuritish faoliyatini talab qiladi. Har ikkala ta'lim shakli ham o'quvchi-talabalar aqliy mehnati, maqsadga yo'naltirilgan va muvofiqlashtirilgan diqqati yordami bilan amalga oshadi. Ta'lim-tarbiya jarayonida zamonaviy iqtisodiyotning nazariy, amaliy va uslubiy asoslarini, tadbirkorlik va biznes qonuniyatlarini yuzasidan chuqur nazariy metodologik, ilmiy-uslubiy xususiyatdagi bilimlar o'zlashtiriladi. Oliy ta'lim muassasasida amaliy mashg'ulotlarni tashkil qilish umumdidaktik

tamoyillarga to‘liq tayanadi: ilmiylik, uzviylik, tushunarilik, puxtalik, ko‘rgazmalilik, differensial yondashuv, yakka yondashuv, onglilik. Umumdidaktik va boshqa tamoyillarning integratsiyasiga asoslangan holda amaliy mashg‘ulotni didaktik nuqtai nazardan didaktik tavsiflash muhim ko‘rinadi. Tadqiqotimizda buning uchun biz quyidagi tavsif sxemasini taklif qildik:

- 1) ta’lim amaliyotida muammoni hal qilish (muammoning kelib chiqishi, uning pedagogik voqelikda qanday namoyon bo‘lishi, uni hal qilish qanchalik muhimligi);
- 2) amaliy mashg‘ulotlarning didaktik asoslari (agar asoslar falsafiy, madaniy xususiyatga ega bo‘lsa, ular didaktikaga o‘zgartiriladi va moslashtiriladi);
- 3) mashg‘ulotlarda maqsadlarni ko‘rsatadigan, unda qimmatli deb e’tirof etilgan obyektlarni tavsiflovchi amaliyotning maqsad-qiyomat komponenti;
- 4) mashg‘ulotda amalga oshirilgan ta’lim mazmuni (bu an’anaviy ta’lim mazmuni bo‘lishi mumkin, to‘ldirilishi va kengaytirilishi yoki tubdan o‘zgartirilishi, bundan tashqari, boshqa asoslar bo‘yicha tanlangan bo‘lishi mumkin);
- 5) mashg‘ulotda o‘quv jarayonini tashkil etish usullari, shakllari, fundamental g‘oyalarni amalga oshirish vositalari;

- 6) natijalarini baholash (haqiqatda mavjud bo‘lganidan sezilarli darajada farq qilishi mumkin);
- 7) o‘qituvchi va talabalar o‘rtasidagi o‘zar munosabatlarning tabiatи.

Ta’kidlash joizki, talabalarning didaktik kompetensiyasi kasbiy kompetensiyaning eng muhim tarkibiy qismi sifatida tizimli va fanlararo xususiyatga ega bo‘lib, shaxsiy va faoliyat tomonlarini o‘z ichiga oladi, amaliy va gumanistik yo‘naltirilgan bo‘lib, uning mazmunli faoliyatini kuchaytirishga yordam beradi. Talabalar uchun zamonaviy o‘quv dasturlari (Oliy ta’limning davlat ta’lim standarti, malaka talablari) pedagogika universitetlarida talabalarning didaktik kompetensiyasini shakllantirishni to‘liq ta’milnamaydi. Oliy ta’limning davlat ta’lim standartlariga muvofiq, o‘quv jarayonining markaziy

vazifikasi talabalarning kasbiy kompetensiyalarini shakllantirishdir.

XULOSA. Shunday qilib, shu munosabat bilan pedagogika fanida pedagogika oliy o‘quv yurti talabalari o‘rtasida didaktik kompetensiyani rivojlantirish vositalari va usullarini izlash hamda ushbu jarayonni o‘rganishga metodik yondashuvlar yangilanmoqda, bu esa pedagogika fanining empirik tajribasini boyitadi.

ADABIYOTLAR RO‘YXATI:

1. Yarmatov R.B. Bo‘lajak tarix o‘qituvchilarining kasbiy metodik tayyorgarligini takomillashtirish: Toshkent, 2020. - 70 b.
2. Храмова, Е. В. К вопросу развития дидактической компетентности преподавателя вуза / Е.В.Храмова // Вестник Новгородского государственного университета им. Ярослава Мудрого. - 2010. - № 58. - С. 51-54.;
3. Логвинов И.И. Актуальные проблемы современной дидактики (полемические рассуждения). М.: НОУ ВПО МПСУ; Воронеж: МОДЭК, 2013. С. 117.
4. Joldasov I.S. O‘quvchilarni kasbga yo‘naltirishda zamonaviy yondashuvlar // Ta’lim va innovatsion tadqiqotlar. – 2023. – B. 284-286.
5. Joldasov I.S. Yordamchı tarix fanlarını o‘qıtışda fanlararo aloqalarning o‘rnı // Tamaddun nuri. – 2024. – №4. – B. 341-343.
6. Joldasov I.S. Talabalarda amaliy kompetensiyani shakllantirishning axborot-loyiha texnologiyalari// Мұғаллим ҳәм үзликсиз билимледирий Илимий-методикалық журнал. – 2024. – № 3/3. – Б. 767-771.
7. Joldasov I.S. Methodology for the formation of professional competence of future teachers // Western European Journal of Modern Experiments and Scientific Methods. Volume 2, Issue 4, 2024.
8. Joldasov I.S. Tasks Implemented in Professional Schools to Send Students to Professions // International Interdisciplinary Research Journal: Vol 2. Issue 2. 2023.